

Globallashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

O'ZBEKISTONDA KONFESSIYALARARO KONSTRUKTIVIZM-NING ROLI VA UNING YOSHLAR TARBIYASIGA TA'SIRI

*Qo'qon davlat pedagogika instituti
Xodjayev Olimxon Shavkatovich*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda g'oyaviy-mafkuraviy barqarorlikni ta'minlashda konfessiyalararo konstruktivizmning roli haqida ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Kalit so'zlar: Jamiyat, din, konfessiyalararo, hamjihatlik, fuqarolik jamiyati.

Hozirgi davrda ilmiy doiralarda dinlararo konstruktivizm va fuqarolik jamiyatining uyg'unligi muammosi bo'yicha konsensus hali yetarli darajada emas. Bu boradagi fikrlar xilma xilligi rivojlanishda davom etmoqda. Olimlar o'rtasida dinding jamiyatdagi roliga turlicha qarashlar mavjud. Jumladan, S.Frank din fuqarolik jamiyatidamuhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, ular o'zaro bog'liq bo'lishi kerak.[1] Uzoq vaqt davomida mamlakatimizda hukmron bo'lgan marksizm va leninizm mafkurasining asosiy kamchiliklaridan biri- dinding jamiyatdagi roliga to'g'ri baho berilmay, unga salbiy munosabatda bo'lib, ateistik targ'ibotni haddan tashqari oshirib yuborilishidir. [2]

Bugungi kunda konfessiyalararo konstruktivizm fuqarolik jamiyati barpo etish hamda g'oyaviy-mafkuraviy barqarorlikni ta'minlash nuqtai nazaridan juda muhimdir. Fuqarolik jamiyati rivojlanishida konfessiyalararo konstruktivizm masalasi hanuz munozarali bo'lib kelmoqda. Sababi, mazkur masala bo'yicha keng ko'lamli ilmiy ishlar olib borilmayapti. Globallashuv sharoitida insoniyat dinlararo muloqotni tushunishda yangicha yondashuvga muhtoj: "dialog -bu ixtiroflar muloqoti".

Shu sababli, konfessiyalararo muloqot sifati muammosi yangilandi, bu "konstruktivizm (ijodkorlik) va uning tarkibidagi destruktivizm (buz g'unchilik) mazmuniga, muloqot sifati jamoat manfaati uchun qay darajada amalga oshirilishiga bog'liq". [3] Ba'zi olimlar globallashayotgan dunyoda sivilizasiyalar muloqoti uchun asosiy mexanizm sifatida madaniyatlararo va dinlararo muloqot zarurligini asoslab, ular jamiyatning g'oyaviy-mafkuraviy barqarorligini ta'minlashda yetakchi kuch rolini o'ynashini ta'kidlaydilar.[4]

Davlatning dinka bo'lgan o'zaro hurmati mavjud bo'lgan jamiyatda hokimiyat, din yoki jamiyat biron bir kishidan ustun kelmasa, uni diniy normalarga rioya qilishga majburlamaydi. Bundan tashqari, uni dahriylikda ayblamaydi. Jamiyatda din, konfessiyalararo hamjihatlik, fuqarolik jamiyatining konstruktiv uyg'unligi va hamkorligi ta'minlansa, bunday jamiyatda haqiqiy fuqarolik jamiyati shakllanishi

Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda

ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

mumkin. Ta'kidlash joizki, aksariyat diniy konfessiya a'zolari bunday jamiyat qurish tarafdori. [5] Jamiyatda g'oyaviy-mafkuraviy barqarorlikni ta'minlash uchun konfessiyalararo konstruktivizmning rivojlanishida dinlararo muloqot va millatlararo munosabatlar tizimining ishlashi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning

g'oyaviy-mafkuraviy barqarorligini ta'minlashda konfessiyalararo konstruktivizmningroli va ahamiyati quyidagilarda ko'rindi:

1. Fuqarolik jamiyatni rivojlanish shakllarining arxitekturasishaxsiy va jamoatmanfaatlarining nisbati bilan belgilanadi.

Falsafiy jihatdan olib qaralganda konfessiyalararo konstruktivizmning shakllanishini shaxsning diniy va dunyoviy dunyoqarashining qayday darajada o'zarouyg'unligi bilan izohlash mumkin.

2. Fuqarolik jamiyatining asosiy maqsadi- bu shaxsning barcha huquqiy va fuqarolik erkinliklarini o'zida mujassamlashtirish. Shaxsning barcha ehtiyojlari qatorida uning ma'naviy va diniy erkinligi, shaxsning insoniy qadr -qimmatini kafolatlaydi.

3. Fuqarolik jamiyatni g'oyasi o'zining barcha milliy shakllari va tarixiy tafovutlaribidan fuqarolik onging integral modelini nazarda tutadi. Unga ko'ra, inson o'z faoliyatida unga tayanib qaror qabul qilishi mumkin. Shaxs faoliyatning ushbu turiga yo'naltirilganligi ijtimoiy taraqqiyotning sekulyar dunyoviy omillarini hisobga olishni talab qiladi.

4. Yangilanayotgan mamlakatimiz uchun fuqarolik jamiyatining shakllanishi ko'p jihatdan, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy bilimlar hamda din va oilaning institusional birligida bo'lgan ijtimoiy - falsafiy tafakkurining an'analariga bog'liq. Rus tadqiqotchisi V.S.Glagolevning fikri ga ko'ra, "Dinlararo dialog - bu umumiy deb ataladigan narsani rivojlanirish maqsadida turli dinlar va diniy birlashmalarning vakillari o'rtasida yuzaga keladigan har xil diniy, axloqiy, ijtimoiy - siyosiy va ijtimoiy

- madaniy va boshqa masalalar bo'yicha muhokamalar to'plami yoki shunga o'xshash yondashuvlardir. Pravoslav cherkovining yirik vakillaridan mitropolit Kirillning mulohazalariga ko'ra, bugungi kunda na faqat xristianlar o'rtasida, balki har qanday diniy, siyosiy qarashlarga amal qiladigan, turli xalq va madaniyatga mansub bo'lgan kishilarningkonsensusi zarurligini ta'kidladi. [6]

Boshqa dinlarning, shu jumladan, islom dinining ayrim yirik vakillari, rahbarlari ham dinlararo ziddiyatlarni, fan va din o'rtasidagi kelishmovchiliklarni o'zarotushunmaslik oqibati deb baholab, barcha kuchlarni jamiyat istiqboli maqsadida birlashishga chaqirmoqdalar. Zotan dinning mohiyati ham tinchlikka, taraqqiyotga xizmat qilish ekanligi uqtirilmoqda. Diniy va dunyoviy mafkuralar o'rtasidagi muloqot umuminsoniy qadriyatlarga asoslanganda u samarali bo'lishi mumkin.

So'nggi yillarda islom mafkurasi bilan bog'liq muammolar olimlarning,

Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

ayniqsa siyosatchilarining diqqat markaziga ko‘chdi. Islom sivilizasiyasiga mansub davlatlarning (ayniqsa arab mamlakatlarining) iqtisodiy jihatdan G‘arbdan orqada qolganligi, individualizmga asosl angan G‘arb madaniyatining salbiy unsurlari [7] ungatoqatsiz bo‘lgan musulmon madaniyatiga kirib kelayotganligi, islom madaniyati va ma’naviyatini sof holda saqlab qolishga, tiklashga bo‘lgan urinishlar, G‘arb va musulmon Sharqi o‘rtasida turli konfliktlarni keltirib chiqarmoqda.

2019 yilning 4 fevral kuni BAAning Abu Dabi shahrida muqaddas Papa Frencis va Imom Ahmad al-Tayeb o‘rtasida “Insoniy birodarlik va tinchlik yo‘lida birgalikda yashash haqida hujjat” imzolandi.

Mazkur hujjatning tarixi ahamiyat shundan iboratki, u dunyo dinlari o‘rtasidagi konstruktivizmga yaqqol misol bo‘la oladi.

Ushbu hujjatda quyidagi masalalarga alohida e’tibor qaratilgan.

Xususan, ushbu hujjat asosida: - jamiatning eng muhtoj bo‘lgan kambag‘allar nomidan bu yordamni barcha odamlar, ayniqsa boy va tarqatuvchi vositachilar uchunmajburiyat qilib qo‘yadi; - yetimlar, bevalar, qochqinlar nomidan va o‘z uyidan va yurtidan quvg‘in qilinganlar nomidan; urush, quvg‘in va adolatsizlik qurbanlari nomidan; zaiflar, qo‘rquvda yashaydiganlar, harbiy asirlar va dunyoning har qanday burchagida qiynoqqa solinganlar uchun hech qanday tazyiq yo‘q; - xavfsizlik, tinchlik va birgalikda yashash imkoniyatini yo‘qotgan, qirg‘in, halokatlar va urushlar qurbaniga aylangan xalqlar nomidan; - insoniy birodarlik nomi bilan barcha odamlarni birlashtirib va tenglashtirgan; - barcha insonlarga bergen erkinlikdan xech kim ularni mahrum qilmaydi; - Al-Azhar sharif va Sharq va G‘arb musulmonlari katolik cherkovi va Sharq va G‘arb katoliklari bilan birgalikda suhbatlashish madaniyatini bir yo‘l sifatida qabul qilishlarini e’lon qiladi; [8] Ushbu hujjat dinlararo totuvlik va umuman insoniyat hayoti muammosiga oid barcha muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi. Diniy ekstremizm, terrorizmnidin bilan umuman hech qanday aloqasi yo‘qligiga alohida urg‘u beriladi, chunki ular har bir dinning mohiyatidagi aqidalarga mutlaqo ziddir va aslida “qaramlik va individual yoki jamoaviy o‘z - o‘zini yo‘q qilish shakllari” dir. Xulosa qilib aytganda, bunday g‘oyalarni tarqatish diniy konfrontasiya, toqatsizlik, ksenofobiyalar va firqalargabo‘linishi uchinchi jahon urushining belgisi sifatida qabul qilinishi mumkin. Shuning uchun terrorchilik harakatlarini qo‘llab - quvvatlashni to‘xtatish juda zarur. Bularning barchasi xavfsizlikka va dunyo tinchligiga tahdid soluvchi xalqaro jinoyatlar sifatida qaralishi kerak. Bu vazifalarni hal qilishda konfessiyalararo konstruktivizmning roli o‘ta muhimdir.

Foydalana ilgan adabiyotlar:

- Гражданское общество и религия (Концепция Семена Франка) //Христианская мысль: политическая теология. Том IX. СПб., 2006. — URL:<http://christsocio.info/content/blogsection/5/31/>.
- Ленин В.И. Об отношении рабочей партии к религии // Полн. собр. соч. Т.

Globallashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda
ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

17. С. 416.

3. Брусиловский Д.А. Межкультурный и межрелигиозный диалог как способ достижения истинной культуры // Исторические, философские, политические и юридические науки, культурология и искусствоведение. Вопросы теории и практики (русский) // Издательство "Грамота" (Тамбов) : статья в журнале -научная статья. 2016. № 10 (72). С. 53-58.
ISSN 1997-292X

